

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/08.05.2024.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

NAJMIDDINOVA GULNORA OBIDJON QIZI

**ZIYORAT TURIZMI INFRATUZILMASI OBYEKTLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING SHAHARSOZLIK MASALALARI**

18.00.02 - Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft
arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

**ARXITEKTURA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Arxitektura bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in architecture**

Najmiddinova Gulnora Obidjon qizi

Ziyorat turizmi infratuzilmasi obyektlarini takomillashtirishning shaharsozlik masalalari.....3

Нажмиддинова Гулнора Обиджон кизи

Градостроительные вопросы совершенствования объектов инфраструктуры паломнического туризма23

Najmiddinova Gulnora Obidjon kizi

Urban planning issues of improving infrastructure objects of pilgrimage tourism.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works52

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/08.05.2024.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

NAJMIDDINOVA GULNORA OBIDJON QIZI

**ZIYORAT TURIZMI INFRATUZILMASI OBYEKTLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING SHAHARSOZLIK MASALALARI**

18.00.02 - Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft
arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

**ARXITEKTURA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/A130-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.taqu.uz/interaktiv-xizmatlar/taqi-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/122-ixtisoslashgan-kengashlar.html>) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) Manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarova Dinara Anvarovna

arxitektura fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Salimov Arifdjan Muslimovich

arxitektura fanlari doktori, professor

Mansurov Yashnar Ma’rufovich

arxitektura fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zshaharsozlik LITI DM

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.03/08.05.2024.A.11.02 raqamli ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashning 2026 yil « 16 » yanvar kuni soat 10-⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko‘chasi 9-uy, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti majlislar zali. Tel.: +998 (55) 508 02 56. e-mail: devon@taqu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (183-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani Yangi shahar ko‘chasi, 9-uy. Tel.: +998 (55) 508 02 56.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 26 » dekabr kuni tarqatildi

(2025-yil « 26 » dekabrda №79 raqamli reestr bayonnomasi).



B.A. Askarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Sh.S. Reyimbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, arxitektura fanlari doktori (DSc), dotsent

M.S. Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, arxitektura fanlari doktori (DSc), v.b. professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli shaharsozlik dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, tarixiy yodgorliklar atrofida zamonaviy turistik infratuzilmalari, raqamli yo'riqnomalar va integrallashgan infratuzilma majmualarini yaratish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, UNESCO, UNWTO va ICOMOS kabi xalqaro tashkilotlarning tashabbuslari ushbu jarayonni yanada jadallashtirmoqda. Jumladan, 2023-yilda UNWTO tomonidan ishga tushirilgan "Tourism for People, Planet and Prosperity" global dasturi doirasida 40 dan ortiq mamlakatda ziyorat va madaniy turizm hududlarida barqaror boshqaruv tizimlari joriy etilishi natijasida ziyoratchilar oqimini boshqarish, meros obyektlarini saqlash va infratuzilmani optimallashtirish bo'yicha xalqaro standartlar amaliyotga tatbiq etila boshlandi.¹

Jahonda bugungi kunda ziyorat markazlariga tashrif buyuruvchilar sonining ortishi madaniy meros obyektlarining saqlanishi, shaharsozlikdagi nomutanosibliklar, ekologik yuklamaning oshishi va xizmatlar sifati bilan bog'liq yangi muammolarni yuzaga keltirib, ularga ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishni talab qilmoqda. Jumladan, xalqaro ekspertlar 2022-2024 yillarda ayrim mamlakatlarda ziyoratchilar oqimining 30-50% ga keskin ortishi tarixiy obyektlarning tez yemirilishi, transport tirbandliklarining kuchayishi, xizmat ko'rsatish sifati pastligi hamda mavjud infratuzilmaning yetarli emasligi kabi jiddiy shaharsozlik muammolarini keltirib chiqarishida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tarixiy meros obyektlarining saqlanishi, ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratish, tarixiy shaharlarni saqlash va ulardan mamlakatimiz sayyohlik tizimini rivojlantirishning asosiy omili sifatida foydalanish haqida aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ziyorat turizmi O'zbekistonning ulkan madaniy-meros salohiyatini dunyoga namoyish etuvchi eng istiqbolli yo'nalishlardan biridir".² Shu maqsadda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"³ hamda 2023-yil 1-martdagi PQ-83-son qarorida ziyorat markazlarini zamonaviy transport, muhandislik va servis infratuzilmalari bilan uyg'un holda rivojlantirish⁴ va takomillashtirish naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatib turibdi.

¹ https://uza.uz/oz/posts/2030-yilgacha-turizmni-rivojlantirish-uchun-munosib-sharoitlar-yaratiladi_570366

² Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi Murojaatnomasi

³ https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

⁴ <https://www.uzdaily.uz/uz/zamonaviy-transport-infratuzilmasi-ozbekistonda-turizm-osishi-uchun-asos-yaratmoqda/>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020-yil 19-iyundagi PQ-4755-son “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, PF-158-son Turizm strategiyasi - 2030 “Mintaqaviy turizm yo‘laklarini rivojlantirish, tarixiy merosni muhofaza qilish va barqaror turizm boshqaruvini takomillashtirish” bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va shu sohaga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ziyorat turizmi infratuzilmasi obyektlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotlarning aksariyati shaharsozlik va iqlim xususiyatlari (rekreatsion rayonlashtirishni kompleks o‘rganish) inobatga olingan holda olib borilgan. Dissertatsiyaning nazariy asoslari turistik arxitekturani tadqiq qilish sohasidagi ayrim jihatlarni ochib beradigan turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotchilar ishlaridan shakllantirilgan. Turistik marshrutlar va majmualar arxitekturasi bo‘yicha xorijiy olimlar Rainer Jelinek, Jan Specht, Hans Jeschke, Peter Mand, R. Sharpley, Marlien Lourens, Ivana Vukadinovic, L.Yu. Smikovskaya, Y.P. Golubeva, Ye.K. Bulatova, V.V. Aurov, G.S. Zaikin, D.M. Bayramova, X.Shenasa⁵ tomonidan, O‘zbekiston turistik obyektlar arxitekturasi yo‘nalishlari

⁵ Rainer Jelinek *Tourismus and Architektur* 2008.,

Jan Specht *A contextual view on the role of contemporary architecture in urban tourism destinations: exploring why contemporary architecture is attracting tourism* 2015.

Hans Peter Jeschke, Peter Mandl *Eine Zukunft für die Landschaften Europas und die Europäische Landschafts konvention* 2012.

Sharpley R. *Tourism & Development: Concepts & Issues* / R. Sharpley, D. John // Chan-nel View Publications, 2002. - 408 p

Marlien Lourens *The Underpinnings for Successful Route Tourism Development in South Africa* 2007.

Ивана Вукадинович *Architecture in tourism*. Krakow 2011.

Смиковская Л.Ю. *Формирование планировочной структуры туристских центров в сложившихся рекреационных районах: авторефер. дис. канд. архитектуры: 18.00.04 - М., 1981. - 19 с.*

Голубева Е.П. *Принципы формирования архитектуры рекреационно досуговых комплексов: дис. канд. архит.: 18.00.02 – Нижний Новгород, 2006. - 195 с.*

Булатова Е.К. *Формирование архитектурной среды туристского центра для малых и средних городов (на примере Южного Урала): дис. канд. архит.: 05.32.20 - Нижний Новгород, 2014. – 139*

hamda obyektlarini loyihalash masalalari ustida O.M. Salimov, M.Q. Ahmedov, A.S. Uralov⁶ va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

XX asrdan boshlab yurtimizda qator olimlar tomonidan O'zbekiston arxitektura va shaharsozlik faoliyati bo'yicha ko'plab tadqiqotchi olimlar o'z izlanishlarini olib borishgan bo'lib, bir necha adabiyotlar, maqola va tadqiqotlar, jumladan, B.N.Zasipkin, L.Voronin, G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, V.E.Nilsen, K.S.Kryukov, M.Bulatov, P.Sh.Zohidov, L.Y.Mankovskaya, I.I.Notkin, M.Q.Ahmedov, D.A.Nozilov, A.S.O'rolov, O.M.Salimov, M.A.Yusupova, X.Sh.Po'latov, A.A.Ziyaev, T.Sh.Mamatmusaev, Z.Adilov va boshqa arxitektorlarning ilmiy - amaliy ishlari va tadqiqotlari me'moriy yodgorliklarni majmua tarzida saqlashning arxitektura va shaharsozlikda tutgan o'rnini keng miqyosda yoritib berganligi bunga misoldir. O'zbekistonning turizm industriyasi va turistik arxitektura sohasida yuzaga kelayotgan muammolar, ularning echim yo'llari, shuningdek, zamonaviy rejalashtirish tamoyillarini qo'llash zarurati masalalari bo'yicha Z.E. Matniyazov⁷, U.N. Narzullayeva⁸, O.M. Salimov⁹, I.K. Shoisoev¹⁰ va G'.A.Meliqulov¹¹ kabi olimlarning ilmiy izlanishlari ushbu dissertatsiya mavzusi bilan uzviy bog'liq bo'lib, dolzarb nazariy asos vazifasini bajaradi.

Ауров В.В., Проблемы использования памятников архитектуры в качестве современных общественных зданий культурно-просветительского назначения (на примере городов «Золотого Колса»): автореферат дис. канд. арх.: 18.00.01– М., 1977. – 16 с.

Заикин Г.С. Архитектурно-градостроительные принципы комплексного сохранения и использования историко-архитектурных памятников в условиях Уралского региона. дис.канд.архитектуры: 18.00.01 - М., 1977. - 129 с.

Шенаса Х. Архитектурно-планировочная организация зоны туристической активности в городах Ирана: дис. канд. арх.: 05.23.22. - М., 2010. - 144 с.

Байрамова Д.М. Архитектурное формирование культурно-туристических комплексов в исторической среде Туркменистана 2017.

Шенаса Х. Архитектурно-планировочная организация зоны туристической деятельности в городе Иран: дис. канд. арх.: 05.23.22. - М., 2010. - 144 с

⁶ Salimov O.M. O'zbekiston arxitektura yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish. –Т., 2020, 320 bet.

Ahmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. –Т., 1996.

Uralov A.S., Sadikova S.N. O'rta Osiyo an'anaviy "chorbog'" uslubi va zamonaviy bog'-park san'ati. –Т., 2012.

Matniyazov Z.E. "Orolbo'yi mintaqasi turistik marshrut obyektlari arxitektura muhitini tashkil etish tamoyillari" Toshkent 2021.

Нарзуллаева У.Н. "Сравнительный анализ развития туризма в странах центральной Азии и Узбекистана/Институт бюджетно-налоговых исследований при Министерстве финансов Республики Узбекистан 2021"

Salimov O.M. O'zbekiston arxitektura yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish. –Т., 2020, 320 bet.

Шоисоев И.К. Мирзачўл архитектурасининг вужудга келиш ва тараккий этиш жараёнлари. Тошкент 2023.

Меликулов Ғ.А. Тарихий ёдгорликлар асосида худудларнинг туризм имкониятларини ошириш йўллари (Қашқадарё вилояти мисолида) Тошкент 2023.

⁷ Матниязов З.Е. "Оролбўйи минтақаси туристик маршрут объектлари архитектура муҳитини тасҳил этиш тамойиллари" Тошкент 2021.

⁸ Нарзуллаева У.Н. "Сравнительный анализ развития туризма в странах центральной Азии и Узбекистана/Институт бюджетно-налоговых исследований при Министерстве финансов Республики Узбекистан 2021"

⁹ Салимов О.М. Ўбекистон архитектура ёдгорликларини сақлаш ва улардан фойдаланиш. –Т., 2020, 320 бет.

¹⁰ Шоисоев И.К. Мирзачўл архитектурасининг вужудга келиш ва тараккий этиш жараёнлари. Тошкент 2023.

¹¹ Меликулов Ғ.А. Тарихий ёдгорликлар асосида худудларнинг туризм имкониятларини осхириш ёллари (Қашқадарё вилояти мисолида) Тошкент 2023.

Bugungi kunda O‘zbekiston ziyorat turizmi infratuzilma obyektlarining shakllantirishga asoslangan turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga oid tadqiqot ishlari hozircha yetarli darajada olib borilmaganligi ushbu mavzuni o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № IL-742210846 “Ijtimoiy soha obyektlarini hamda ko‘p qavatli uy-joylarni loyihalash, qurish va foydalanishda axborot modellashtirish tizimini joriy etish” (2024-2025 y.y.) loyiha mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ziyorat turizmi infratuzilmasi obyektlarini shaharsozlik jihatidan takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-konseptual tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ziyorat turizmi obyektlarini kompleks baholash va tahlil qilish orqali ularni tasniflash;

ziyorat turizmi obyektlarini xizmat ko‘rsatish masofasi (qamrovi)ga ko‘ra turkumlash va ularning xizmat radiuslarini aniqlash;

ziyoratchilarning tashrif ketma-ketligiga asoslangan senariy modelini ishlab chiqish, har bir bosqichning funksional mazmunini aniqlash va ushbu modelni ziyorat infratuzilmasiga integratsiya qilish orqali tashrif tajribasini optimallashtirish;

so‘rovnomalar yordamida eng ko‘p ziyoratchi tashrif buyuradigan obyektlarni aniqlash, turistik oqimni mavsumiylik va davomiylik mezonlari bo‘yicha tahlil qilish, infratuzilmaning yuklama imkoniyatlarini baholash hamda ziyoratchilar ehtiyojlariga mos funksional xizmat zonalarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ziyorat turizmi infratuzilmasi tarkibiy elementlari olingan.

Tadqiqotning predmetini ziyorat turizmi obyektlarini komponentlari va elementlarining shaharsozlik muhitidagi bog‘lanishlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlil qilish va umumlashtirish, statistik ma’lumotlar va shaharsozlik rejalari tahlili, so‘rovnoma, swot tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ziyoratchilarning tashrif jarayonini (makon-vaqt-funksiya bo‘yicha) tizimli boshqarish ssenariy modeli ishlab chiqilib: a) ekskursiya marshruti va ketma-ketligini tuzish; b) hududlarning tarixiy muhiti bilan tanishish; v) mahalliy-madaniy urf-odatlar bilan tanishish; g) sayyohlarning bo‘sh vaqtini tashkil etish va rekratsiya; d) kundalik tabiiy ehtiyojlarni qondirish bosqichlarida tashkil etish mexanizmlari asoslab berilgan;

ziyosat-turizmi infratuzilmalarini shakllantirish ziyosatgohlar joylashgan hududlarning tarixiy muhitini saqlash va tiklash, hudud funksiyalarini samarali takomillashtirish, ziyosat majmualarining arxitekturaviy-rejalashtirishida shaharsozlik yondashuvini qo'llash, ziyosatchilar uchun ko'p bosqichli xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish orqali ziyosat hududlarida funksional, vizual va servis qulayliklarini uyg'unlashtirish kabi 5 ta tamoyilga asoslanishi ochib berilgan;

ziyosat turizmi obyektlarini mahalliy, oraliq, markaziy kabi uch bosqichli xizmat ko'rsatish diapazonlariga ajratgan holda: *markaziy xizmat ko'rsatish diapazonida* - (400 metr radius oraliq'ida) turistik obyekt, marosimlar joyi, qisqa muddatli dam olish va xizmat ko'rsatish obyektlari; *oraliq xizmat ko'rsatish diapazonida* - (1000 metr radius oraliq'ida) mahalliy informatsion shaxobchasi, ovqatlanish, tez yordam, kichik savdo va gigiyena shahobchalari; *markaziy xizmat ko'rsatish diapazonida* - (1500 metr radius oraliq'ida) turistik servis markazlari, mehmonxona va hostellar, savdo va hunarmandchilik markazlari, ko'rgazma va muzeylar joylashtirish orqali obyektlarni uzluksiz xizmatlar tizimi ishlab chiqilgan;

ziyosatgohlar infratuzilmalarini takomillashtirish maqsadida ziyosat-turistik kompleks klaster sifatida ishlab chiqilib, uning asosiy elementlari (tarixiy-madaniy muzeylar, turistlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha axborot-navigatsiya markazlari, turistik baza, hunarmandchilik va mahalliy ustaxonalar, zamonaviy xizmat ko'rsatish majmualari, rekreatsiya va dam olish hududlari) va komponentlari (ekspozitsion ko'rgazma zonalari, ma'muriy boshqaruv bloklari, ziyosatchilar uchun qulay ovqatlanish va oromgoh maydonlari, hunarmandchilik do'konlari ba o'quv-usta-xonalar, ochiq-yopiq jamoat yig'ilish maydonlari, savdo hududlari, konferensiya zali, xizmat ko'rsatish, texnik-xo'jalik maydonlari) belgilab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ziyosat-turizmi yo'nalishida shaharsozlik yechimlarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar va loyihaviy mezonlar ishlab chiqishda, ziyosatchilarning makon-vaqt-funksiya bo'yicha tashrif jarayonini boshqarish ssenariy modeli asosida ziyosat marsrutlarini shakllantirish, tarixiy muhit bilan tanishuv bosqichlarini tartiblash hamda rekreatsiya va xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha amaliy mexanizmlar ishlab chiqilgan;

ziyosat-turizmi infratuzilmalarini rivojlantirishda tarixiy muhitni saqlash, hudud funksiyalarini takomillashtirish, ko'p bosqichli xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini modernizatsiya qilishga qaratilgan shaharsozlik tamoyillari amaliy echimlar sifatida ishlab chiqilgan;

hududlarni mahalliy, oraliq va markaziy xizmat ko'rsatish diapazonlariga ajratish mezonlari asosida ziyosatgohlar atrofini funksional rejalashtirish bo'yicha 400-1500 metr radius oraliq'ida joylashtiriladigan turistik obyektlar, informatsion

shoxobchalar, tibbiy yordam nuqtalari, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari hamda mehmonxona va servis markazlarining optimal joylashuvi bo'yicha amaliy sxemalar taklif etilgan;

ziyosat-turistik kompleksni klaster sifatida shakllantirish konsepsiyasi amaliy jihatdan asoslanib, uning tarkibiy elementlari - muzeylar, axborot-navigatsiya markazlari, hunarmandchilik ustaxonalari, rekreatsiya zonalari, ochiq-yopiq yig'ilish maydonlari va servis obyektlarining funksional o'rni va joylashuv parametrlari aniqlab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo'llanilgan ilmiy yondashuv, nazariy ma'lumotlarning loyiha ishlari amaliyotga joriy etilganligi, hamda ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuv va nazariy ma'lumotlarning eksperimental loyihalash orqali amaliyotga joriy etilganligi, ushbu loyihalarning amalga oshirilganligi bilan joriy etilgan natijalarning sohaga tegishli respublikadagi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, xulosa hamda olingan natijalarning Respublika vakolatli tashkilotlarida amaliyotga joriy etilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shaharsozlik sohasida bilimlarni boyitish va o'quv jarayoni materiallarini, jumladan "Arxitektura tarixi", "Shaharsozlik" kabi yo'nalishlarda o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, moddiy madaniyatni yoritishda, oliy o'quv yurtlari hamda mutaxassislar uchun malaka oshirish kurslarida seminarlar tashkil etish uchun foydalanishda keng imkoniyatlar yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarixiy shaharlarni saqlash, qayta qurish va modernizatsiya qilish bo'yicha ishlab chiqilayotgan loyiha yechimlarining sifatini oshirishga, ularni tarixiy-madaniy merosni saqlagan holda zamonaviy turistik xizmatlar tizimini takomillashtirishga, shuningdek ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarning kasbiy saviyasini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ziyorat turizmi infratuzilmasi obyektlarini takomillashtirishning shaharsozlik masalalari mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ziyosat-turizmi infratuzilmalarini shakllantirish ziyoratgohlar joylashgan hududlarning tarixiy muhitini saqlash va tiklash, hudud funksiyalarini samarali takomillashtirish, ziyorat majmualarining arxitekturaviy-rejalashtirishida shaharsozlik yondashuvini qo'llash, ziyoratchilar uchun ko'p bosqichli xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish orqali ziyorat hududlarida funksional, vizual va servis qulayliklarini uyg'unlashtirish kabi 5 ta tamoyilga asoslanishi ochib berilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

qoshidagi texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan "DIZAYN KOD. Umumiy talablar" nomli texnikaviy shartni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 17 oktabrdagi 347-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston hududidagi ziyorat obyektlarining turistik saloxiyatini oshirish va ziyoratchilar qamrovini oshirish orqali, obyektlarni tanitish, IT texnologiyalarni joriy etish orqali interfaol stendlar, yo'naltiruvchi robotlar va virtual reallikni integratsiyasini amalga oshirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga erishilgan;

ziyoratchilarning tashrif jarayonini (makon-vaqt-funksiya bo'yicha) tizimli boshqarish ssenariy modeli ishlab chiqilib: a) ekskursiya marshruti va ketma-ketligini tuzish; b) hududlarning tarixiy muhiti bilan tanishish; v) mahalliy-madaniy urf-odatlar bilan tanishish; g) sayyohlarning bo'sh vaqtini tashkil etish va rekratsiya; d) kundalik tabiiy ehtiyojlarni qondirish bosqichlari tashkil etish mexanizmlari asoslab berilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi "Turizm qo'mitasi"da foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 16 yildagi 03-10-17-6476-son ma'lumotnomasi). Natijada turli hududlarda eng ko'p tashrif buyuriladigan ziyoratgohlar reytingi shakllantirildi, turistik oqimning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari tahlil qilindi, tashriflar davomiyligi va mavsumiylik xususiyatlari asosida tashrif modellari ishlab chiqish orqali samaradorlikka erishilgan;

uch bosqichli xizmat ko'rsatish diapazonlariga ajratgan xolda: *markaziy xizmat ko'rsatish diapazonida* - (400 metr radius oralig'ida) turistik obyekt, marosimlar joyi, qisqa muddatli dam olish va xizmat ko'rsatish obyektlari; *oralig' xizmat ko'rsatish diapazonida* - (1000 metr radius oralig'ida) mahalliy informatsion shaxobchasi, ovqatlanish, tez yordam, kichik savdo va gigiyena shaxobchalari; *markaziy xizmat ko'rsatish diapazonida* - (1500 metr radius oralig'ida) turistik servis markazlari, mehmonxona va hostellar, savdo va hunarmandchilik markazlari, ko'rgazma va muzeylar joylashtirish orqali obyektlarni uzluksiz xizmatlar tizimi ishlab chiqilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 16 iyuldagi 04-07/2874-son ma'lumotnomasi). Natijada "Chor-Bakr", "Bahouddin Naqshband" va "G'ijduvoniya maqbarasi" kabi obyektlarda landshaft, transport va xizmat infratuzilmasining optimallashtirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining natijalari 20 ta ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan nashrlarda 19 ta ilmiy

maqola (ulardan 4 tasi xorijiy nashrlarda yuqori “Impact Factor”ga ega jurnallarda), 6 ta konferensiya materiallarida (ulardan 3 tasi xalqaro, 3 tasi respublika konferensiyalarida) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiya matni 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **I bobi Ziyorat turizmi va infratuzilma: nazariy asoslar** deb nomlanib, unda ziyorat turizmi tushunchasi, uning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, shaharsozlik tizimida ziyorat turizmi infratuzilmasining tutgan o'rni atroflicha yoritiladi. Bob doirasida ziyorat turizmi fenomeni nafaqat turizmning alohida turi sifatida, balki madaniy merosni asrash, tarixiy shaharlarni rivojlantirish, urbanistik tuzilmani optimallashtirish va hududiy rejalashtirish kabi ko'plab sohalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida o'rganiladi. Shu bilan birga, ziyorat turizmi bo'yicha xalqaro tajribalar, dunyoning turli mamlakatlarida qo'llanilayotgan yondashuvlar va ularning ilmiy tahlili ham mazkur bobning asosiy qismlaridan birini tashkil etadi.

Ushbu bobda avvalo turizmning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy mazmuni keng yoritilgan. BMTning Butunjahon Turizm Tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ilmiy ta'riflar asosida turizm tushunchasining zamonaviy talqini, ya'ni uni sog'lomlashtirish, ma'rifat olish, madaniy almashinuv, muloqot, ruhiy tiklanish va shaxsiy taraqqiyot jarayonlarining majmui sifatida talqin etilishi izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, ziyorat turizmi insonning ma'naviy va ruhiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa-da, u zamonaviy sharoitda iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy rivojlanish, hududiy faollik, shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi ko'plab omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kompleks tizim sifatida ko'rsatib beriladi.

Bob davomida turizmning tarixiy shakllanish bosqichlari, uning jahon sivilizatsiyasi rivojidagi roli, qadimgi ziyorat markazlari atrofida shakllangan shaharsozlik tizimlari, odamlarning ziyorat motivlari va bu jarayonlarning o'ziga xos rivojlanish dinamikasi chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Qadimiy dunyoda Makka, Madina, Istanbul, Konya, Vatikan, Nepal kabi ziyorat markazlarga bo'lgan diniy safarlar nafaqat diniy marosimlarning amalga oshirilishi, balki ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning jonlanishi, savdo yo'llarining rivojlanishi, hunarmandchilikning shakllanishi, shahar maydonlari, bozorlar, mehmonxona va karvonsaroylarning paydo bo'lishiga zamin yaratganligi ilmiy dalillar yordamida asoslanadi.

Ziyorat turizmining ilmiy tasnifi ham bobning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda ziyorat turizmi diniy, ma'naviy, madaniy-ma'rifiy, tarixiy, ekologik, rekreatsion va kognitiv yo'nalishlarga ajratiladi. Har bir yo'nalishning funksional vazifalari, ziyoratchilarning tashrif motivlari, foydalaniladigan resurslar tizimi va shaharsozlik bilan bog'liq talablari batafsil yoritilgan. Ayniqsa, diniy ziyoratlar jarayoni davomida tarixiy yodgorliklar, muqaddas maskanlar, diniy marosimlar, mahalliy urf-odatlar ziyorat turizmining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralib,

ularning shahar arxitekturasiga, estetik qiyofasiga, xizmat ko'rsatish tarmoqlariga ko'rsatgan ta'siri ilmiy asos bilan tushuntiriladi.

Bobda "turistik salohiyat", "turistik resurslar", "turizm industriyasi", "madaniy-turistik majmua", "ziyosat markazi", "tarixiy muhit" kabi atamalar chuqur nazariy talqin qilinadi. Ayniqsa, "madaniy-turistik majmua" - tarixiy meros obyektlari, ziyorat maskanlari, axborot markazlari, mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish tarmoqlari va rekreatsion hududlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan urbanistik tizim sifatida alohida ilmiy yondashuv orqali izohlanadi. Ushbu majmualarning shahar estetik qiyofasini shakllantirish, turistik oqimni boshqarish, hududning tarixiy qimmatini saqlash va aholi uchun qulay urbanistik makon yaratishdagi roli ko'rsatib berilgan.

Ziyorat turizmi infratuzilmasining tarkibiy qismlari - ziyoratgohlar, transport yo'nalishlari, axborot vositalari, joylashtirish inshootlari, savdo va xizmat ko'rsatish maskanlari, madaniy-ma'rifiy markazlar - yagona funksional tizim sifatida talqin etilib, ularning har biri shaharsozlik tuzilmasida alohida vazifani bajarishi asoslab beriladi. Shu bilan birga, ziyoratchilarning makon bo'ylab harakatlanishi, tashrif ssenariysi, transport-piyoda oqimlarining muvozanati, xavfsizlik tizimi, ekologik qurshov kabi masalalar zamonaviy urbanistik nazariya doirasida ko'rib chiqiladi.

Bobning muhim qismi ziyorat obyektlarini shahar fazosida samarali joylashtirish, ularni xizmat ko'rsatish va transport infratuzilmalari bilan integratsiyalash, tarixiy va ekologik muhitni saqlash, funksional zonalash jarayonlarini ilmiy asoslashga bag'ishlangan. Bu jarayonda "ziyosat zonasi", "xizmat zonasi", "transport zonasi", "rekreatsion zona" kabi funksional hududlar bo'yicha taklif etilgan zonalash yondashuvi shaharsozlik amaliyotida muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi.

Bobning yakuniy qismida xalqaro tajriba keng qamrovda tahlil qilinadi. Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina, Erondagi Mashhad, Turkiyadagi Konya, Vatikan, Lumbini kabi yirik ziyorat markazlarining transport boshqaruvi, ekologik transport tizimlari, xavfsizlik infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining raqamlashtirilishi, axborot texnologiyalarining qo'llanishi va turistik oqimlarni mavsumiy boshqarish tajribasi ilmiy solishtirma yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ushbu tajribalar asosida O'zbekiston shaharlarida ziyorat turizmi infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha - raqamli navigatsiya, QR-kod tizimlari, ekologik transport, smart-infratuzilma elementlari, xavfsizlik monitoringi, barqaror turizm boshqaruvi kabi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy takliflar berilgan.

Umuman olganda, birinchi bobda ziyorat turizmi va uning infratuzilmasi nazariy-metodologik jihatdan chuqur tahlil qilinib, shaharsozlik tizimida tutgan o'rni, uning funksional imkoniyatlari, urbanistik rivojlanishdagi roli hamda xalqaro tajriba asosidagi takomillashtirish mexanizmlari keng va mukammal ilmiy asosda yoritilgan. Ushbu bob keyingi boblarda ishlab chiqiladigan amaliy yondashuvlar, takomillashtirish modellarini yaratish uchun zarur konseptual poydevor vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning **II bobi "Ziyorat turizmi infratuzilmasi obyektlarining holati va rivojlanish muammolari"** deb nomlanib, unda ziyorat turizmi infratuzilmasining tarkibi, turlari, ularning funksional va morfologik xususiyatlari,

shaharsozlik jarayonlaridagi o'zni, mavjud muammolar va ushbu muammolarning shakllanishiga ta'sir etuvchi hududiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar keng qamrovda tahlil qilinadi. Mazkur bob ziyorat turizmi infratuzilmasining bugungi holatini aniq diagnostika qilish, tizimdagi nomutanosibliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan qarashlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Bob avvalo ziyorat turizmi infratuzilmasining kompleks tizimi va uning tarkibini tashkil etuvchi asosiy komponentlarni aniqlashdan boshlanadi. Ziyorat infratuzilmasi ko'p qatlamli bo'lib, unda diniy-ma'naviy obyektlar (ziyoratgohlar, maqbaralar, masjidlar, aziz-avliyolar yodgorliklari), transport-logistika tarmoqlari, joylashtirish vositalari, savdo-xizmat ko'rsatish maskanlari, rekreatsion hududlar, shuningdek, axborot-kommunikatsiya, ekologik va ijtimoiy xizmatlar tizimi o'zaro bog'langan holda faoliyat ko'rsatadi. Mazkur infratuzilmaning har bir unsuri ziyoratchilar uchun qulay, xavfsiz va madaniy-estetik jihatdan uyg'un bo'lgan sharoit yaratishda muhim o'rin tutadi.

Ziyoratgohlar ziyorat turizmi infratuzilmasining yadro obyektlari sifatida talqin etilib, ular faqat diniy markaz vazifasini bajarib qolmay, balki shahar arxitekturasi tarixiy tuzilishi, madaniy merosning davomiyligi, urbanistik landshaftning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston misolida Buxorodagi Bahouddin Naqshband majmuasi, Samarqanddagi Shohi Zinda va Xoja Doniyor ziyoratgohlari, Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi kabi obyektlar nafaqat diniy-ma'rifiy markaz, balki shahar fazoviy tuzilmasining markaziy kompozitsion bo'g'ini ekanligi qayd etiladi. Shu bois, ziyorat obyektlari atrofida shakllantiriladigan xizmat ko'rsatish tizimi, rekreatsion hudud va transport-logistika tizimi shaharsozlik tamoyillariga qat'iy mos bo'lishi talab etiladi.

Bobda ziyoratchilarning xatti-harakati, tashrif motivlari va ehtiyojlari o'rganilib, ziyorat turizmi boshqa turizm turlaridan farqli ravishda ruhiy poklanish, ma'naviy yuksalish, tarixiy meros bilan bevosita tanishish kabi omillar bilan belgilanadi. Shu sababli ziyoratchilar uchun yaratiladigan infratuzilma shovqin-suron, ortiqcha tijoratlashuv va transport tirbandliklaridan xoli, osoyishta va e'tiqod ruhiyatiga mos bo'lishi lozim. Tadqiqotda minimal, ammo zarur xizmat elementlari - tahoratxonalar, axborot markazlari, shoshilinch yordam shoxobchalari, oromgohlar, ichimlik suvi nuqtalari, kutish pavilyonlari - ning funksional jihatdan to'g'ri joylashtirilishi infratuzilmaviy samaradorlikni ta'minlaydigan omil sifatida asoslab beriladi.

Shaharsozlik nuqtai nazaridan ziyorat hududlarini funksional zonalarga ajratish konsepsiyasi bobning muhim qismiga aylanadi. Ushbu konsepsiyada ziyorat majmualari bir-biri bilan uyg'un ishlaydigan bir nechta asosiy zonalarga bo'linadi. Yadro zona - bu ibodat, diniy marosimlar va ziyorat amallari bajariladigan markaziy hudud bo'lib, ziyoratchilar asosiy diqqatni shu hududga qaratadilar. Xizmat ko'rsatish zonasi esa savdo, ovqatlanish, dam olish, tibbiy yordam va turar joy xizmatlarini birlashtiruvchi hudud sifatida tashkil etiladi, bu ziyoratchilarning qulayligini ta'minlaydi. Rekreatsion zona yashil maydonlar, soyabonli hududlar, o'rindiqlar, sayr yo'laklari va suv havzalarini o'z ichiga oladi, u erda ziyoratchilar dam olish va tabiiy muhit bilan tanishish imkoniga ega bo'ladilar. Transport-

logistika zonasi esa avtoturargohlar, shuttle bekatlari, ekologik transport yo‘laklari, piyodalar va velosiped yo‘laklarini o‘z ichiga oladi, bu hudud ziyoratchilar oqimini samarali boshqarish va ularning harakatlanishini qulay qilishga xizmat qiladi. Shu tarzda, barcha zonalar o‘zaro muvofiqlikda ishlashi natijasida ziyorat hududi funksional jihatdan mukammal va tartibli tarzda tashkil etiladi.

Bunday fazoviy yondashuv ziyoratchilar harakatini boshqarish, transport yuklamasini kamaytirish, ekologik barqaror muhitni ta‘minlash, ziyoratgoh atrofidagi tarixiy landshaftni muhofaza qilish vazifalarini samarali hal etadi.

Bobda, shuningdek, O‘zbekiston ziyorat markazlaridagi infratuzilma holati qiyosiy-uslubiy yondashuvda o‘rganiladi. Buxoro, Samarqand, Xiva kabi yirik markazlarda infratuzilma nisbatan yaxshi shakllangan bo‘lsa-da, raqamli navigatsiya tizimi, ekologik transport, elektron axborot tizimlari kabi zamonaviy komponentlarning etarli darajada rivojlanmagani aniqlangan. Chekka va tog‘li hududlardagi ziyorat maskanlarida esa yo‘l sifati, sanitariya holati, xavfsizlik tizimi juda past darajada ekani qayd etiladi.

Ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillar ilmiy asosda guruhlariga ajratilgan. Birinchi guruh infratuzilmaviy eskirish va etishmovchilikni o‘z ichiga oladi, bunda suv ta‘minoti, kanalizatsiya, elektr va yo‘l tarmoqlarining eskiligi yoki mavjud emasligi ziyorat turizmining samarali rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ikkinchi guruh - tartibsiz qurilishlar bo‘lib, ular tarixiy me‘moriy muhitni buzadigan ruxsatsiz inshootlarning barpo etilishi bilan namoyon bo‘ladi. Uchinchi guruh transport-logistika tizimining zaifligi bo‘lib, turist oqimlarini boshqarishning ilmiy modellarining etishmasligi bilan bog‘liq. To‘rtinchi guruh axborot-kommunikatsiya tizimining rivojlanmaganligi bo‘lib, QR-kod xaritalar, raqamli gidlar va mobil ilovalarning mavjud emasligi bilan xarakterlanadi. Beshinchi guruh mahalliy aholi ishtirokining pastligi, ya‘ni xizmat ko‘rsatish madaniyatining etarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Oltinchi guruh ekologik yuklama bilan izohlanadi, bunda chiqindi boshqaruvi va suv resurslarini tejash tizimining sustligi kuzatiladi. Yettinchi va oxirgi guruh tashkiliy boshqaruvdagi uzilishlarni o‘z ichiga oladi, ya‘ni idoralararo koordinatsiyaning etishmasligi hamda yagona strategiya va yondashuvning mavjud emasligi ziyorat turizmi infratuzilmasi rivojiga to‘sqinlik qiladi. Shu tarzda, barcha omillar kompleks tarzda bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, infratuzilmaning samarali rivojlanishini ta‘minlash uchun ularni birgalikda hisobga olish zarur.

Bobda shuningdek ziyorat infratuzilmasi rivojiga ta‘sir etuvchi hududiy, geografik, iqtisodiy va demografik omillar tahlil qilinadi. Masalan, Buxoro va Samarqand kabi tarixiy markazlarda ziyoratchilar oqimining mavsumiy keskin o‘zgarishi infratuzilmaga ortiqcha bosim tushishiga, transport tizimida tirbandliklarga, ayrim hududlarda esa sanitar talablarga rioya qilinmasligiga olib kelishi ilmiy jihatdan isbotlab beriladi.

Mazkur bob ziyorat turizmi infratuzilmasining bugungi holatini ilmiy asosda tahlil qiladi, tizimdagi strukturaviy kamchiliklar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlaydi hamda bu muammolarni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan shaharsozlik, iqtisodiy, tashkiliy va ekologik yondashuvlarni belgilab beradi. Bobdan kelib chiqqan ilmiy xulosalar dissertatsiyaning keyingi boblarida taklif

etiladigan amaliy echimlar uchun mustahkam nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya doirasida hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ziyorat turizmi infratuzilmasi rivojiga ko'rsatadigan ta'siri ham keng qamrovda tahlil qilingan bo'lib, bu omillar ziyorat hududlarining shakllanishi, xizmat ko'rsatish sifati va ziyoratchilar oqimini boshqarish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda, avvalo, geografik joylashuv, iqlim sharoiti, tabiiy landshaft, tarixiy meros zichligi, aholi soni va urbanizatsiya darajasi kabi fundamental hududiy ko'rsatkichlar ziyorat turizmi infratuzilmasining rivojlanishida asosiy determinantlar sifatida talqin etildi. Ushbu omillar ziyoratchilar oqimining mavsumiy dinamikasi, tashrifning davomiyligi, transport yuklamasi, xizmat ko'rsatish tizimining talab yuqori bo'lgan davrlarda ko'tara olish qobiliyati kabi parametrlar bilan bevosita bog'liq ekanligi empirik ravishda isbotlandi.

Tadqiqot doirasida Buxoro shahrida olib borilgan amaliy kuzatuvlar va statistik monitoring natijalari ziyoratchilar oqimi bilan mavjud infratuzilma quvvati o'rtasida sezilarli nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatib berdi. Xususan, bahor va kuz mavsumlarida tashrif buyuruvchilar soni keskin oshgani sababli transport-logistika tizimi, sanitariya-gigiena obyektlari, joylashtirish vositalari va savdo-xizmat shoxobchalari yuklamani ko'tara olmayotgani aniqlangan. Bu holat nafaqat xizmat sifati pasayishiga, balki tarixiy yodgorliklar va madaniy landshaftga ortiqcha ekologik bosim tushishiga olib kelmoqda. Shahar chetidagi muqaddas maskanlarda esa yo'l sifati, yoritish tizimi, xavfsizlik infrastrukturasi mavjud kamchiliklar ziyoratchilar harakatlanishiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda.

Bobda, shuningdek, ziyorat turizmi infratuzilmasining holati va rivojlanishida davlat siyosati, me'yoriy-huquqiy tizim va shaharsozlik rejalashtirish jarayonlarining o'rni alohida ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Ziyorat turizmini rivojlantirish konsepsiyasi" mazkur infratuzilmani zamonaviy talablar asosida tashkil etish, xizmatlar tizimini ekologik, texnologik va estetik jihatdan modernizatsiyalashni talab qilishi qayd etilgan. Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amaldagi shaharsozlik hujjatlari - bosh rejalar, batafsil rejalashtirish loyihalari, turizmni rivojlantirish davlat dasturlari, hududiy konsepsiyalar o'zaro integratsiyalashmagan. Bu esa takrorlanayotgan loyihalar, mablag'larning maqsadsiz sarflanishi, funksional nomuvofiqlik va infratuzilmaning parchalanib ketishiga sabab bo'lgan.

Muallif tomonidan ziyorat infratuzilmasini kompleks modernizatsiya qilish bo'yicha bir qator strategik yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Ularning markazida zamonaviy "aqlli infratuzilma" (Smart Infrastructure) yondashuvini joriy etish turadi. Ushbu yondashuv sun'iy intellekt asosida ziyoratchilar oqimini onlayn monitoring qilish, raqamli navigatsiya tizimlari, QR-kodli gidlar, mobil ilovalar va elektron ma'lumot kiosklari orqali axborot bilan ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirish - elektrobuslar, velosiped yo'laklari, shuttle xizmatlari - tarixiy markazlarga bosimni kamaytirish uchun taklif etilgan. Yana bir muhim yo'nalish - tarixiy muhitni asrab qolgan holda modernizatsiya tamoyilini uyg'unlashtirish, ya'ni restavratsiya ishlari bilan servis

obyektlarining zamonaviy ko‘rinishda tashkil etilishini bir-biriga zarar etkazmay amalga oshirishdir.

Tadqiqot mahalliy iqtisodiy faoliyatni ziyorat turizmi infratuzilmasi bilan integratsiya qilish zarurligini ham asoslab berdi. Xususan, hunarmandchilik markazlari, oilaviy mehmon uylari, milliy oziq-ovqat mahsulotlari savdosi, mahalliy ustaxonalar va madaniy xizmatlar ziyorat hududlarida natural iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, aholini turizm jarayoniga jalb etadi va ularning iqtisodiy manfaatdorligini oshiradi. Bu esa ziyorat hududlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ziyoratchilar xavfsizligi masalasi bobning yana bir muhim yo‘nalishini tashkil etib, mavjud tizimlarda videokuzatuv, xavfsizlik yoritish chiroqlari, tibbiy yordam punktlari, favqulodda holat xizmati va yo‘lovchilar oqimini boshqarish tizimlarining etarli darajada emasligi aniqlangan. Shu munosabat bilan xavfsizlik infratuzilmasini zamonaviy me‘yorlar asosida takomillashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bob yakunida ziyorat turizmi infratuzilmasining holati va rivojlanish muammolarini bartaraf etish bo‘yicha bir qator fundamental ilmiy-amaliy echimlar taklif qilinadi. Ular orasida - milliy me‘yoriy-huquqiy bazani yangilash, shaharsozlik hujjatlariga “ziyosat zonasi” tushunchasini kiritish, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni ta‘minlaydigan barqaror model yaratish, xalqaro tajriba (Makka, Vatikan, Konya, Mashhad)ni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish kabi yo‘nalishlar mavjud. Umuman olganda, dissertatsiyaning ushbu bobi mamlakatdagi ziyorat turizmi infratuzilmasining hozirgi holatini chuqur tahlil qiladi, tizimdagi zaifliklar va nomuvofiqliklarni aniq ko‘rsatib beradi hamda ularni bartaraf etish uchun shaharsozlikka asoslangan ilmiy echimlar majmuasini ishlab chiqadi. Tadqiqot natijalari ziyorat hududlarini barqaror va tizimli rivojlantirish, ziyoratchilar ehtiyojlariga mos infratuzilma tizimini shakllantirish hamda milliy madaniy merosni asrab qolish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **III bobi Ziyorat turizmi infratuzilmasi obyektlarini takomillashtirishning shaharsozlik echimlari** deb nomlanib, O‘zbekistonda mavjud arxitektura yodgorliklari asosida ziyorat-turizmi infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan shaharsozlik yondashuvlari, rejalashtirish modellarini ishlab chiqish hamda ularning amaliyotdagi qo‘llanilish imkoniyatlarini ochib berishga bag‘ishlangan. Ushbu bobda taklif etilayotgan nazariy g‘oyalar, hududiy loyiha echimlari va iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ziyoratgohlar atrofida barqaror infratuzilmaviy tizim yaratishga doir konseptual qarashlar tizimli tarzda ishlab chiqilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy asosda ziyorat hududlarining rejalashtirish va shaharsozlik jarayonlariga ta‘sir etuvchi barcha omillar, jumladan, demografik holat, tabiiy-landshaft sharoiti, transport va kommunikatsiya tizimlari, shuningdek, mahalliy aholi va turistlarning ehtiyojlari o‘rganilgan.

Avvalo, ziyorat-turizmi infratuzilmasini shakllantirish jarayonida O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, qadimiy shaharsozlik an‘analari va zamonaviy rejalashtirish prinsiplari o‘zaro uyg‘un holda tahlil qilingan. Shaharsozlik tamoyillari sifatida besh asosiy yo‘nalish aniqlangan: tarixiy muhitni

saqlash va tiklash, hudud funksiyalarini muvofiqlashtirish, arxitekturaviy-rejalashtirishni ilmiy asoslash, bosqichma-bosqich xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish hamda raqamli axborot-kommunikatsiya tizimlarini integratsiya qilish. Ushbu tamoyillar ziyorat hududlarining madaniy identitetini asrab qolgan holda, ularni zamonaviy turizm talablari asosida rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqot shuningdek, arxitektura yodgorliklari va tarixiy landshaftlarni qadrlash hamda ularga zarar etkazmasdan yangi inshootlar va xizmatlar tizimini barpo etishning optimal usullarini aniqlashga qaratilgan.

Shuningdek, tadqiqotda tarixiy merosni muhofaza qilish bilan birga, yangi infratuzilma obyektlarining hajmiy-fazoviy echimlari tarixiy landshaft va me'moriy ansambllar bilan uyg'unlashgan holda shakllantirilishi lozimligi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan. Har bir ziyorat hududi funksional jihatdan yadro (ziyosat markazi), xizmat ko'rsatish, dam olish-rekreatsioon hamda transport-logistika zonalariga ajratilishi taklif etilgan. Bu yondashuv ziyoratchilar oqimini tartibga solish, ekologik yuklamani kamaytirish va tarixiy muhitning autentikligini saqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, bobda shaharsozlik echimlarining amaliy ahamiyati ham batafsil ochib berilgan. Ziyorat hududlarida barqaror infratuzilma tizimini yaratish, transport va yo'laklar tarmog'ini modernizatsiya qilish, turistik xizmatlar sifatini oshirish va raqamli axborot tizimlarini integratsiya qilish orqali ziyoratchilarga qulay va xavfsiz muhit yaratish mumkinligi ta'kidlangan. Taklif etilgan konsepsiya nafaqat turizm sohasining rivojlanishiga, balki mahalliy iqtisodiyot, madaniy merosni saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu tarzda, bob ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirishda shaharsozlik yondashuvlarini ilmiy asosda tizimli tarzda qo'llashning nazariy va amaliy asoslarini yaratadi, bu esa hududiy rejalashtirish va turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirish uchun muhim zamin bo'lib xizmat qiladi.

